



## RAQAMLI MUHITDA SHAXSGA DOIR MA'LUMOTLARNI HUQUQIY HIMOYA QILISHNING DOLZARB MASALALAR

Ozodbek Rajabov

Toshkent davlat yuridik universiteti  
jinoiy odil sudlov fakulteti talabasi  
<https://doi.org/10.5281/zenodo.17528864>

### ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 25-oktabr 2025 yil  
Ma'qullandi: 28-oktabr 2025 yil  
Nashr qilindi: 31-oktabr 2025 yil

### KEYWORDS

Shaxsiy ma'lumotlar, sun'iy  
intellekt, raqamli muhit,  
kiberxavfsizlik, huquqiy himoya,  
raqamli savodxonlik.

### ABSTRACT

*Maqolada raqamli muhitda shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish muhimligi, kiberjinoiyatlar va ularning salbiy oqibatlari tahlil qilinadi. O'zbekiston va xalqaro qonunchilik tajribasi asosida kiberxavfsizlikni mustahkamlash va aholining raqamli savodxonligini oshirish zarurligi ta'kidlangan..*

Insoniyat tarixining xar bir davri o'ziga xos voqealar bilan boy. XXI asrda esa ular raqamli texnologiyalar bilan bog'liq. Ular jamiyat hayotining ajralmas qismidir va biz ularsiz yashashimiz deyarli imkonsizdek. Raqamli texnologiyalar bizga har sohada turli qulayliklar yaratish bilan birga ayrim muammolarga sabab bo'layotgani hammamizga ma'lum. Ushbu muammolardan biri esa shaxsiy ma'lumotlarning muhofaza qilinishi masalasidir. Bu masala hozirda eng dolzarb mavzu bo'lib kelmoqda. Chuni hakkerlar va firibgar shaxslar ushbu ma'lumotlarni qiyinchiliksiz qo'lga kiritmoqda. **Shaxsga doir ma'lumotlar** — muayyan jismoniy shaxsga taalluqli bo'lgan yoki uni identifikatsiya qilish imkonini beradigan, elektron tarzda, qog'ozda va (yoki) boshqa moddiy jismda qayd etilgan axborot ya'ni ular shaxsing ism-sharifi, tug'ilgan sanasi, manzili, pasport raqami, telefon raqami, biometrik va boshqa bevosita unga yo'naltirilgan manbalar. Demak shaxsga doir ma'lumot muayyan jismoniy shaxs haqidagi ma'lumotlarni aniqlashimizga imkon beruvchi vosita hisoblanadi. Ushbu malumotlarning boshqa bir shaxs qo'lga tushishi esa salbiy oqibatlar keltirib chiqarishi turgan gap, albatta. Ushbu ma'lumotlar noqonuniy tarzda oshkor etilishi yoki 3-shaxs qo'lga tushishi insonning shaxsiy hayot daxlsizligini buzishi va huquqlariga zarar yetkazishi turgan gap.

### Metodlar

Ushbu maqolani tayyorlashda turli ilmiy maqolalarni tahlil qilinadi va O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi, xalqaro huquqiy hujjatlar ushbu maqola asosida o'rganiladi. Tadqiqotda huquqiy tahlil, statistika umumiy lashtirish va qiyoslash usullari qo'llaniladi. Maqsad – raqamli muhitda shaxsga doir ma'lumotlarni himoya qilishning amaldagi tizimini tahlil qilish va uni takomillashtirish bo'yicha xulosalar ishlab chiqishdan iborat.

### Natijalar

Raqamli muhitda shaxsiy ma'lumotlar juda keng tarqalgan va ularni himoya qilish juda muhim. Ularning noqonuniy tarqalishi shaxsiy hayot va moliyaviy xavfsizlikka zarar yetkazishi mumkin. Sun'iy intellekt va boshqa raqamli tizimlar katta hajmdagi ma'lumotlarni saqlaydi va qayta ishlaydi, bu esa kiberjinoyatlar uchun imkoniyat yaratadi. So'nggi yillarda kiberjinoyatlar keskin oshgan, shaxsiy ma'lumotlardan turli maqsadlarda foydalanish kuzatilmoqda. O'zbekistonda raqamli tizim va kiberxavfsizlikni mustahkamlashga qaratilgan qonunlar va strategiyalar ishlab chiqilgan, lekin har bir fuqaro ham o'z ma'lumotlarini ehtiyotkorlik bilan saqlashi, onlayn xavfsizlikka e'tibor berishi muhimligi aniqlandi.

### **Muhokama**

Biz jamiyat hayotida ishtirok etar ekanmiz, uning har bir yerida o'z "izimiz" sifatida shaxsiy ma'lumotlarimizni qoldiramiz va bu ma'lumotlar nafaqat davlat hududida balki xalqaro miqyosda ham keng tarqalmoqda. Kun davomidan telefonimiz, kompyuterimiz, orqali turli platformalarga shaxsiy ma'lumotlarimizni, ism-sharifimizni, tug'ilgan sanamizni, manzilimizni, telefon raqam va pochta manzilimizni kiritamiz. Biz sun'iy intellekt asosida ishlovchi dasturlar va raqamli tizimlarga hamma ma'lumotlarimizni beramoqdamiz. Bu ma'lumotlar esa ularning ulkan ma'lumotlar bazasida saqlanmoqda. Sun'iy intellekt tizimlari asosan juda katta hajmdagi ma'lumotlarni, jumladan, odamlarning shaxsiy va xulq-atvoriga oid ma'lumotlarni qayta ishlash orqali ishlaydi. Shu sababli, bunday ma'lumotlar turli yo'llar bilan nafaqat mamlakat ichida, balki chet davlatlarga ham tarqalmoqda. Bu esa shaxsiy ma'lumotlarning ruxsatsiz tarqalishiga va kiberjinoyatlar sonining keskin ortishiga sabab bo'lmoqda. Bugungi kunda "raqamli jinoyatchilar" deb ataluvchi yangi turdagi jinoyatchilar zamonaviy usullar orqali internet orqali odamlarning ma'lumotlaridan noqonuniy foydalanyapti. Milliy Kiberjinoyatlar Hisobot Portali ma'lumotlariga ko'ra, 2025-yilning so'nggi olti oyida 12 million 473 mingdan ortiq kiberjinoyat holati aniqlangan. Ichki ishlar vazirligi esa so'nggi to'rt yil ichida kiberjinoyatlar 400 foizga ko'payganini bildirgan.<sup>1</sup> Ular shaxsiy ma'lumotlarni turli maqsadda ishlatishi mumkin. Masalan, shaxsni soxtalashtirish. O'zgalar shaxsiy ma'lumotini qo'lga kiritganlar u insonning nomidan bank hisoblarini ochishi, qarz olishi va boshqa rasmiy xujjatlarni qiyinchiliksiz olishni uddalaydi, albatta. Bu ishlardan qurbonning xabari ham bo'lmaydi. Undan tashqari, moliyaviy firibgarliklar. Hammamiz ham umrimizda bir marta bo'lsa ham firibgarlarni telefonimizga hujum qilganiga guvoh bo'lganmiz. Ular sizga telefon qilishlari yoki telegram orqali sizning hisobingizga ulanishga harakat qilishadi. Bular orqali sizning plastik kartangizdan pul o'g'irlanishi hech gap emas. Hakkerlar ma'lumotlaringizni ko'p jihatdan pulga yoki siyosiy maqsadlarga aylantirishi mumkin - bu bank pulidan tortib, shaxsiy obro'ga qadar zarar yetkazadi. Shu bois shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish sizning asosiy vazifangiz bo'lishi kerak. Afsuski shaxsiy ma'lumotlarni buzish faqat firibgar va hakkerlar tomonidan amalga oshirilmaydi. Ba'zi hollarda bu ish turli tashkilotlar tomonidan amalga oshirilgani kuzatiladi. Bunga bir misol sifatida 2010-yilda AQShning Pensilvaniya shtatidagi Lower Merion School Districtda "Webcamgate" deb nomlangan mojaro yuz berdi. Maktab ma'muriyati o'quvchilarga

<sup>1</sup>Dhiraj Kumar. (2025, September 25). Personal data & its safety. The Hitavada. <https://advance.lexis.com/api/document?collection=news&id=urn%3acontentItem%3a6GTV-FYG3-RXPS-7301-00000-00&context=1519360&identityprofileid=CJQVWW63400>  
(<https://advance.lexis.com/api/document?collection=news&id=urn%3acontentItem%3a6GTV-FYG3-RXPS-7301-00000-00&context=1519360&identityprofileid=CJQVWW63400>)

tarqatilgan noutbuklardagi vebkamera dasturi orqali ularning uylari va shaxsiy hayotini yashirincha kuzatgan. Bu amaliyot ota-onalar rozilgisiz 42 marta amalga oshirilgan. Hodisa Blake Robbins oilasining shikoyatidan so'ng fosh bo'lib, shaxsiy hayot daxlsizligi va raqamli maxfiylik huquqining buzilishi sifatida baholandi<sup>2</sup>. Bu kabi harakatlar bizni yanada hushyor bo'lishga undaydi, albatta. Shaxsiy ma'lumotlarimizni himoya qilishim zamona talabi hisoblanadi. Inson turli xil ijtimoiy munosabatlarda ishtirok etar ekan, o'z ma'lumotlarini boshqalarga bermaslikning imkoni yo'q, albatta. Masalan, biz ba'zan davlat organlariga boramiz va ular bizdan shaxsiy ma'lumotlarimizni talab qilishadi. Ushbu shaxslarda o'ziga ma'lum bo'lgan birorta fuqaroning ma'lumotlarini oshkor qilishlari majburiyatlar bor. Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari to'g'risidagi qonunning **19-moddasiga** ko'ra murojaatlarni ko'rib chiqishda jismoniy shaxslarning shaxsiy hayoti, yuridik shaxslarning faoliyati to'g'risidagi ma'lumotlar ularning rozilgisiz va agar bu jismoniy va yuridik shaxslarning huquqlari, erkinliklari hamda qonuniy manfaatlarini kamsitadigan bo'lsa, boshqa axborotning davlat organlari, tashkilotlar xodimlari va ular mansabdor shaxslari tomonidan oshkor etilishiga yo'l qo'yilmaydi deb belgilab qo'yilgan. Mana shu hamma ma'lumotlar davlatning elektron bazasida saqlanadi va ushbu ma'lumotlar hackerlar tomonidan buzilish oqibati yo'q deb ayta olmaymiz. Shaxsiy ma'lumotlar insonning o'ziga xosligini, shaxsiy daxlsizligini ifodalovchi juda nozik va muhim axborotlardir. Shu bois, ularni nafaqat har bir fuqaro shaxsan himoya qilishi, balki davlat tomonidan puxta ishlab chiqilgan siyosiy va huquqiy mexanizmlar orqali ishonchli tarzda muhofaza etilishi zarur. Jamoatchilik o'rtasida shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish madaniyatini rivojlantirish hamda bu boradagi xabardorlikni oshirish barchamizning umumiy burchimizdir. Shu sababli O'zbekistonda raqamli tizimdagi ma'lumotlarni himoya qilishga doir birmuncha ishlar amalga oshirilmoqda, jumladan, jumladan, qonunchilik bazasi takomillashtirilgan, "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasi doirasida chora-tadbirlar ko'rilgan va shaxsiy ma'lumotlar hamda davlat axborot tizimlari xavfsizligini ta'minlashga qaratilgan amaliy ishlar bajarilgan. Bu borada qonuniy-huquqiy normalar qabul qilingan, kiberxavfsizlikni boshqarish tizimlari joriy etilgan va aholining raqamli savodxonligi oshirilgan. Aynan shu o'rinda qo'shnimiz bo'lgan Qozog'iston davlatida ham qator islohatlar amalga oshirilmoqda. Prezident Qasim-Jomart To'qayev raisligida o'tgan Xavfsizlik kengashi yig'ilishida kiberxavfsizlik, shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish va kiberjinoyatlarga qarshi kurash masalalari muhokama qilindi. Hisobotlar tinglanib, strategik xatarlarni kamaytirish hamda aholining kiberxavfsizlik madaniyatini oshirish bo'yicha chora-tadbirlar belgilandi<sup>3</sup>. Lekin bu degani davlat meni shaxsiy ma'lumotlarimni himoya qilar ekan deb ularni e'tibordan chetda qoldirishimiz yaramaydi. Bu huquqiy idealizm

<sup>2</sup> By Monica Yant Kinney, Inquirer Columnist. (2010, February 28). Monica Yant Kinney: Another pin in the privacy balloon. The Philadelphia Inquirer.

<https://advance.lexis.com/api/document?collection=news&id=urn%3acontentItem%3a7XWX-SJ11-2R00-5002-00000-00&context=1519360&identityprofileid=CJQVWW63400>

<https://advance.lexis.com/api/document?collection=news&id=urn%3acontentItem%3a7XWX-SJ11-2R00-5002-00000-00&context=1519360&identityprofileid=CJQVWW63400>

<sup>3</sup> (2025, September 16). Head of State held a meeting of the Security Council on cybersecurity issues. Kazakhstan Newline (English). <https://advance.lexis.com/api/document?collection=news&id=urn%3acontentItem%3a6GS9-HGX3-RSF1-K10Y-00000-00&context=1519360&identityprofileid=CJQVWW63400>

<https://advance.lexis.com/api/document?collection=news&id=urn%3acontentItem%3a6GS9-HGX3-RSF1-K10Y-00000-00&context=1519360&identityprofileid=CJQVWW63400>

ya'ni huquq normalariga ortiqcha ishonib yuborish hisoblanadi. "O'zingni ehtiyot qil qo'shningni o'g'ri tutma",-degan gap bejizga emas albatta.

Shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish haqida xalqaro hujjatlar ham mavjud. Shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilishga doir huquqiy tartibotlar dunyoda 1970-yillardan boshlab shakllangan. Bu yo'nalishdagi ilk qonun 1970-yilda Germaniyaning Hesse shtatida ishlab chiqilib, mahalliy hokimiyat organlarining markazlashgan axborot tizimlaridan foydalanishini tartibga solgan. Ushbu hujjatning o'ziga xos jihati shundaki, unda ma'lumotlarni himoya qilish komissiyasi tashkil etilgan hamda qonun ijrosini nazorat qiluvchi parlament vakili tayinlangan. Hesse shtatining bu tajribasi keyinchalik boshqa Yevropa mamlakatlarida shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilishga oid qonunlar yaratilishiga asos bo'lgan. Undan tashqari shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish borasida ko'plab hujjatlar mavjud. Va ular asosida barcha davlatlar o'z qonunchilik tizimini takomillashtirmoqda.

"Achchiqni achchiq kesadi",-deganlaridek kiberhujumni kiberxavfsizlik yordamida bartaraf etishimiz mumkin. **Kiberxavfsizlik** – bu kompyuter tizimlari, tarmoqlar va ma'lumotlarni ruxsatsiz kirishdan, foydalanishdan, oshkor qilishdan, buzilishdan, o'zgartirishdan yoki yo'q qilishdan himoya qilish amaliyoti. U nafaqat biznes va davlat tashkilotlari uchun, balki har bir inson uchun ham dolzarb masaladir. Kiberxavfsizlik madaniyatini shakllantirish va aholining onlayn xavfsizlik bo'yicha savodxonligini oshirish ham muhim vazifalardan biridir. Buning uchun ta'lim muassasalarida kiberxavfsizlik bo'yicha darslar va treninglar o'tkazish, ommaviy axborot vositalarida mavzuga oid ko'rsatuvlar va maqolalar berib borish, ijtimoiy reklamalardan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Shu yo'l bilan biz yoshlarimizga kiberxavfsizlik ko'nikmalarini singdirishimiz va ularni onlayn tahdidlardan himoya qilishimiz mumkin<sup>4</sup>. Davlat qanchalik harakat qilmasin, undagi fuqarolar huquqiy ongi shakllantirishga harakat qilmas ekan, bu harakatlarning barchasi samarasiz hisoblanadi. Bir ko'p bora nomiga olingan kreditdan shikoyat qilganlarni, hisob raqamidan pul o'g'irlashganini ko'p bora eshitganmiz. Ular soddaligi tufayli shaxsiy ma'lumotlarini qo'shqo'llab bermaganida edi, bu vaziyatga tushmagan bo'lishar edi. Davlat turli dasturlar orqali aholini huquqiy va texnologiyalarga nisbatan savodxonligini oshirish dasturlarini ishlab chiqishi zarur. Masalan, **Latviya** davlatida 2024-yil 17-oktyabrda 9–12-sinf o'quvchilari uchun Data State Inspectorate (DVI) tomonidan Internetda shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish bo'yicha seminar o'tkaziladi. Tadbir "The click was nothing. But you gave a lot" kampaniyasi doirasida bo'lib, yoshlarni shaxsiy ma'lumotlarini xavfsiz saqlash va onlayn firibgarlikdan himoyalashga o'rgatadi<sup>5</sup>. Bu orqali kelajakda yanada xavfsiz muhit yaratilishi ta'minlanadi, chunki yoshlarni shaxsiy ma'lumotlarini himoya qilishdagi ongini shakllantirish orqali davlat o'z fuqarolarini yana bir karra himoya qilgan bo'ladi.

### Xulosa

Bugungi kunda raqamli texnologiyalar hayotimizning ajralmas qismiga aylangan. Shu bilan birga, shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish juda muhim bo'lib qolmoqda, chunki u

<sup>4</sup> **Abdixakimov Islombek** <https://library-tsul.uz/kiberxavfsizlikning-kundalik-hayotimizdagi-ahamiyati-va-huquqiy-jihatlari/>

<sup>5</sup> (2025, October 17). Students will be informed about data protection on the Internet. Nordic Daily.

<https://advance.lexis.com/api/document?collection=news&id=urn%3acontentItem%3a6H0H-XW03-RSXN-Y4X0-00000-00&context=1519360&identityprofileid=CJQVWW63400>

<https://advance.lexis.com/api/document?collection=news&id=urn%3acontentItem%3a6H0H-XW03-RSXN-Y4X0-00000-00&context=1519360&identityprofileid=CJQVWW63400>

noto'g'ri qo'llarga tushsa odamning shaxsiy hayoti va moliyaviy xavfsizligiga zarar yetishi mumkin. Shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish nafaqat davlat, balki har bir fuqaroning ham vazifasidir. Shu bois, kiberxavfsizlikni mustahkamlash, odamlarni onlayn xavfsizlik bo'yicha xabardor qilish va ma'lumotlarni ehtiyotkorlik bilan saqlash zarur. Undan tashqari aholining bu boradagi savodxonligini ham yangi darajaga olib chiqishimiz kerak.

**Adabiyotlar ro'yxari:**

1. Dhiraj Kumar. (2025, September 25). Personal data & its safety. The Hitavada. <https://advance.lexis.com/api/document?collection=news&id=urn%3acontentItem%3a6GTV-FYG3-RXPS-7301-00000-00&context=1519360&identityprofileid=CJQVWW63400> (<https://advance.lexis.com/api/document?collection=news&id=urn%3acontentItem%3a6GTV-FYG3-RXPS-7301-00000-00&context=1519360&identityprofileid=CJQVWW63400>)
2. By Monica Yant Kinney, Inquirer Columnist. (2010, February 28). Monica Yant Kinney: Another pin in the privacy balloon. The Philadelphia Inquirer.
3. <https://advance.lexis.com/api/document?collection=news&id=urn%3acontentItem%3a7XWX-SJ11-2R00-5002-00000-00&context=1519360&identityprofileid=CJQVWW63400> (<https://advance.lexis.com/api/document?collection=news&id=urn%3acontentItem%3a7XWX-SJ11-2R00-5002-00000-00&context=1519360&identityprofileid=CJQVWW63400>)
4. (2025, September 16). Head of State held a meeting of the Security Council on cybersecurity issues. Kazakhstan Newslines (English).
5. <https://advance.lexis.com/api/document?collection=news&id=urn%3acontentItem%3a6GS9-HGX3-RSF1-K10Y-00000-00&context=1519360&identityprofileid=CJQVWW63400> (<https://advance.lexis.com/api/document?collection=news&id=urn%3acontentItem%3a6GS9-HGX3-RSF1-K10Y-00000-00&context=1519360&identityprofileid=CJQVWW63400>)
6. Islombek Abdixakimov <https://library-tsul.uz/kiberxavfsizlikning-kundalik-hayotimizdagi-ahamiyati-va-huquqiy-jihatlar/>
7. (2025, October 17). Students will be informed about data protection on the Internet. Nordic Daily.
8. <https://advance.lexis.com/api/document?collection=news&id=urn%3acontentItem%3a6H0H-XW03-RSXN-Y4X0-00000-00&context=1519360&identityprofileid=CJQVWW63400> (<https://advance.lexis.com/api/document?collection=news&id=urn%3acontentItem%3a6H0H-XW03-RSXN-Y4X0-00000-00&context=1519360&identityprofileid=CJQVWW63400>)
9. O'zbekiston Respublikasining jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari to'g'risida qonuni
10. "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasi